



hokimligi
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi
maktabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
-umumi o'rta ta'lim maktabi
to'garak rahbari
ning
20__-20__-o'quv yili uchun

“SHE'R XONLIK”
TO'GARAK
HUJJATLARI

To‘garak a’zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona _____

“ _____ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari _____

To‘garak rahbari _____

**“TASDIQLAYMAN”
MMIBDO‘**

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “She’rxonlik” nomli to‘garagining
ISH REJASI**

Nº	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Maxtumquli	1		
2.	Abay	1		
3.	Turob To‘la	1		
4.	Usmon Nosir sh’erlari	1		
5.	Shavkat Rahmon sh’erlari	1		
6.	Iqbol Mirzo sh’erlari	1		
7.	Sirojiddin Sayyid	1		
8.	Azim Suyun she’rlari	1		
9.	A’zam Obidov she’rlari	1		
10.	Muhammad Yusuf she’rlari	1		
11.	Mirtemir she’rlari	1		
12.	Omon Matjon	1		
13.	Erkin Vohidov «NIDO» dostoni	1		
14.	Abdulla Oripov O‘zbekiston qasidasi	1		
15.	Anvar Obidjon she’rlari	1		
16.	Zulfiya she’rlari	1		
17.	Boborahim Mashrab g’azallari	1		
18.	G’ofur G’ulom hayoti va ijodi. Sh’erlari	1		
19.	Hamza Hakimzoda Niyoziy	1		
20.	Saida Zunnunova she’rlari	1		
21.	Shuhrat she’rlari	1		
22.	Rasul Hamzatov she’rlari	1		
23.	Cho‘lpon she’riyati	1		
24.	Halima Xudoyberdiyeva she’rlari	1		
25.	Rauf Parfi	1		
26.	Avaz O‘tar	1		
27.	Furqat	1		
28.	Muhammadrizo Ogahiy	1		
29.	Jahonotin Uvaysiy	1		
30.	Nodira	1		
31.	Pahlavon Mahmud	1		
32.	Nizomiy Ganjaviy	1		
33.	Fuzuliy	1		
34.	Xurshid Davron	1		

Mavzu: Maxtumquli

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiyl maqsad: to 'garak a'zolari faolligi, mustaqilligini va she'riyatga bo'lgan qiziqishini hamda so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakkantirish, mantiqiy fikrashga o'rgatish, tafakkur olamini kengayrirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq to 'garak a'zolarini sifatl o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrashga qodir bo'lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

Mashg'ulot jahozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshirqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni: Maxtumquli (Magtymguly; taxallusi Firog'iy; 1733, Gurgan daryosi sohilidagi Hoji-govshan qishlog'i — 1783) — turkman shoiri va mutafakkiri. Otasi Davlatmamat Ozodiy (1700—1760) ham shoir bo'lgan. Maxtumquli boshlang'ich ta'limgi oilada o'z otasidan olgan. So'ng qishloq maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qigan. Dastlab Maxtumquli Xalach atrofining Qiziloyaq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko'kaldosh, Xivaning Sherg'oziy madrasalarida tahsil olgan. Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy, Navoiy singari mashhur shoirlar ijodidan bahramand bo'lgan. Zargarlik bilan shug'ullangan. Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston kabi bir kancha shaharlarga sayohat kilgan.

Maxtumqulining oilaviy sharoiti xususida har xil rivoyatlar bor. Maxtumqulishunoslar Maxtumquli

Menglixon ismli qizni chin dildan e6sevganini, biroq ularning turmush qurishiga imkon bo'lmaganini yozadilar.

Maxtumquli bir qancha lirik she'rlar, lirik-epik dostonlar, g'azal va muxammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pand-nasihat xarakteridagi 10 ming misradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtumquli she'rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlari, o'z davrining muhim ijtimoiyisosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan («Bo'Imasa», «Kelgay», «Bilan», «Naylayin», «Etmas», «Bular», «Ketdi zamona» va b.). Asarlarida turkman urug'larini birlashishga chaqirgan. Ular o'rtasidagi nizo-janjallarni tugatishga uringan («Taka, yovmut, ko'klang, yozir, alili — Bir davlatga qullik kilsak beshimiz...»).

NAMASAN

Asli seni ko'rmaganman, dildorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G'amgin dilni xayolingda aldarman,
Bog' ichinda gul-gulmisan, namasan?

Qaroqchimi, yo sayidmi, xo'jami?
Yo soqiymi, yo sharobmi, yo jommi?
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami?
Yo oymisan, yo kunmisan, namasan?

Yo mushkmisan, yoki chambil, yo anbar,
Aytolmayman, yo charxmisan, yo chambar?
Daryomisan, yo mayjmisan, yo safsar,
Girdobmisan, to'lqinmisan, namasan?

Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan?
Yo arshmisan, Kursimisan, yermisan?
Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan?
Yo chirog'mi, yo ziyozan, namasan?

Maxtumquli, kech nomusu oringdan,
Q'o'lingni tort bu vafosiz koringdan.
Jahon to'la, sen g'ofilsan yoringdan,
Yo mastmisan, yo shaydosan, namasan?



KO'RING

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma'rakada o'tirib-turishin ko'ring.
Birov bilan oshno bo'lay desangiz,
Avval o'z so'zida turishin ko'ring.

Uzoq-yaqin yo'lga borar bo'lsangiz,
Mardlik kilichini solar bo'lsangiz,
Bir bedovni saylab olar bo'lsangiz,
Siynasin, sag'risin kerishin ko'ring.

Bir pul tushsa bir iflosning qo'liga,
Ko'ksin ochib, kezar qishning yeliga,
Xaridor bo'lsangiz qizga, kelinga,
Adabin, ikromin, o'tirishin ko'ring.

Mard yigitning ot-yarog'i shay bo'lsa,
Etishar har yerda hayda-hay bo'lsa,
O'zi Hotam bo'lib, yana boy bo'lsa,
Chor atrofdan mehmon kelishin ko'ring.

Bir nechani qilding moli bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori,
Yaxshi-yomon – odam zotining bori
Navbat bilan o'tib borishin ko'ring.

IV. Mashg'ulotni yakunlash: to 'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: Maxtumquli she'rlarini yod olib kelish.

Mavzu: Abay

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiyl maqsad: to'garak a'zolari faolligi, mustaqilligini va she'riyatga bo'lgan qiziqishini hamda so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakkantirish, mantiqiy fikrashga o'rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmlli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalişlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatlari o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrashga qodir bo'lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.


Mashg'ulot jihizi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriquqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni: Abay — Ibrohim Qo'nonboyev — XIX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod etgan qozoq she'riyatining mash'ali, bastakor, faylasuf va qozoq yozma adabiyotini asoschisi, ma'rifatparvar shoiridir. U 1845 yilning 8 avgustida Semipalatinsk viloyatiga karashli, hozirgi Abay tumani, Chingiztug' bovuridagi Qashqabuloq makonida dunyoga kelgan. Otasi Qo'nonboy O'skonboy o'g'li qozoq urug'lari ichidagi eng boy, badavlat kishilardan bo'lib, Abayni o'qitishga katta ahamiyat berdi. Abay madrasada to'rt yil ta'lif oldi. Arab, fors tillarini o'rgandi. Markaziy Osiyo allomalarini, xususan, Sa'diy Sheroyi, Hofiz Sheroyi, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy, Bobur, Nodira asarlarini mutolaa qildi.



O'LAN

O'lan — so'zning poshshosi, so'z sarasi,
Qiyindan qiyiltirar er donosi,
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.
Saralanmay bulg'ansa so'z orasi,
Bu — oqinning bilimsiz-bechorasi.
Ham oqin, ham tinglovchi ko'pi nodon,
So'z tanimas bul yurtning bir porasi.
So'z boshi avval hadis, oyat bo'lur,
Shirasi ham ma'nosи g'oyat bo'lur.
Payg'ambar h-am so'zini o'lan qilgan;
O'lan aytay, shoyadki ko'nglim to'lur.
O'landay xutba o'qib keksa mullo,
O'lan ayolib yig'lagan valiyullo,
Hamma ham chamasicha o'lan o'qir,
O'lan bilan yozilgan kalimullo.
O'langa ishqimiz bor qadim choqdin,
Lekin qanday naf bo'lar maqtanmoqdin!
Ichi zar, sirti kumush so'z yaxshisin —
Kelishtirar kim ham bor mo'l qozoqdin?..
So'zni chertib so'zlasang har kim siylar,
Maqol qo'shib so'zlarkan keksa biylar.
Oqinlari beaql, nodon ekan,
Bekor so'zni teriday nuqul iylar.
Qo'lida ham qo'bizi, ham do'mbira,
Hammaga maxtov o'qir, qo'ymas sira.
O'lan ayolib xayr tilar elni kezib,
So'z qadrin yerga urar, bo'lib xira.
Mol uchun so'zni bezar, vijdon sotar,
Mol uchun bo'yin egar, molday yotar.
Mol uchun ham aldaydi, ham avraydi,
E xudo, shu oqinlar qachon qotar?

KO'KLAM

Ko'klam kelsa, qolmaydi qishning izi,
Qulp urar ko'kalamzor yerning yuzi;
Jon kiradi borilqqa, tabiatga,
Ona yanglig' jilmayar kunning ko'zi.
Kulishar, o'lan aytar yigit-yalang,
Utovda o'tirolmas qari-qartang;
Jon-jonivor, odamizod yayrab ketar,
Qushlarning qo'shig'idan havo jarang.
Qirdagi, soydag'i el aralashar,
Qo'y qo'zilab, oyoqqa o'ralashar,
Qish bo'yи bir-birini ko'rmanganlar
Quchoqlashar, o'ynashar, hol so'rashar.
Tuya bo'zlar, ot kishnar, qo'ra shov-shuv,
Kapalaklar gul izlab uchar duv-duv.
Yetti rangli gilamday yashil tusda —
Suluv qizday buralib oqadi suv.
Ko'l yoqalab uchishar o'rdak ham g'oz,
Uya izlab yugurar bola shovvoz;
Uchar btni egarlab ko'lga tushsang,
Chaqmoqday tez ov olar bo'z dovulboz.
Qanjig'ada o'ljası — ovchi qaytar,
Suluv qizlar nozlanib, salom aytar.
Qush go'shtiga mos tushar nordon qimiz,
Badaningni balqitar, jimirlatar.
Ko'klamday kiyinishar kelinchaklar,
Chekkasida gunafsha, boychechaklar,
Qirda to'rg'ay sayrasa, soyda bulbul,
Gul bilan to'lib ketar — tul etaklar.
Dehqonlar qo'sh qo'shadi, ekar ekin,
Hafta o'tmay ko'karar ekin-tikin,
Savdogarlar mol yuklab, tuya qo'mlab,
Olis-olis yo'llardan kelar sekin.

IV. Mashg'ulotni yakunlash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: Abay she'rlarini yod olish kelish.

Mavzu: Turob To‘la

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad: to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va she’riyatga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, uning og‘zaki nutqini shakkantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmli va zehnli bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatlari o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishslash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jahozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshirqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni: Turob To‘la (taxallusi; familiyasi To‘laxo‘jayev, 1918.24.12 hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyatining Turbat qishlog‘i — 1990.20.4, Toshkent) — shoir, dramaturg va kinodramaturg. O‘zbekiston xalq shoiri (1988). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1967). Toshkent teatr bilim yurtida (1934—38), Toshkent pedagogika institutining til va adabiyot fakultetida (1938—41) o‘qigan. «Yosh leninchi» gazetasida adabiy xodim (1935—41), O‘zbekiston Davlat radioeshitirish qo‘mitasida muharrir va direktor (1935—48), «Qizil O‘zbekiston» gazetasi tahririyatida adabiy kotib (1948—49), partiya idoralarida instruktor (1949—51), O‘zbekiston Davlat nashriyotida muharrir (1953—57), «O‘zbekfilm» kinostudiyasida stsenariy bo‘limi boshlig‘i (1957—62), Kinochilar uyushmasida kotib (1962—67), Madaniyat vazirligi qoshidagi San’at ishlari boshkarmasida boshliq (1967—76), Hamza teatrida direktor (1977—79), Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyat bo‘limi va Adabiyotni targ‘ib etish markazida rahbar (1980—90). Dastlabki «She’rlar» to‘plami 1939 yilda nashr etilgan. Shundan keyin shoirning «Shodligim» (1941), «Tabassum» (1944), «Baxt tongotari» (1948), «Muborakbod» (1949), «Bolalar dostoni» (1950), «Qanonlan, qo‘shiqlarim» (1955), «Tanlangan asarlar» (1958), «Oromijon» (1961), «Gulyor» (1968), «Oftob nayzada» (1974) singari she’r, qo‘shiq va dostonlardan iborat to‘plamlari e’lon qilingan.



ISHQ BORKI...

Ishq borki go‘zal olam, u ko‘zlar qarog‘inda,
U borki ko‘ngil so‘nmas hattoki firog‘inda.

U borki bahor hargiz bog‘laydi yarang guldan,
Mas’udi, maloling ham qosh ila qovog‘inda.

Dasht birlan o‘tib ketdi bir ohu misol navro‘z,
Lolai gulobingni ezg‘ilab oyog‘inda.

Qolmishdi yaqo yirtib barginda tiniq, shabnam,
Go‘yoki fig‘onidin yosh erdi yonog‘inda.

U tobe etar go‘yo baxtingni qilib gulxan,
Olamga bayon aylab mash’ali mayog‘inda.

Qancha dardi-hasrat bor, qancha qulfi tilsimot,
U uzgan ko‘ngil torin har bitta ulog‘inda.

Barchasin bilar ko‘ngil, barchasin etar barham,
U bois rivoyatlar el-yurti qulog‘inda!

YOR ETMA

Agar ahdimni buzsam, dilnavozim, asti yor etma,
Muhabbat bog‘ini tark et va aslo guluzor etma.

Agar yov oldida behuda ish birlan asir o‘lsam,
Qasos nafrat bilan o‘ldir, meni aslo xumor etma.

Harom o‘lsin muhabbat gar yo‘limdan bir qadam qaytsam
Raqibim bo‘l, rafiqam bo‘limgil, motam mazor etma.

Zafar birla jahonga ko‘rsaturman chin muhabbatni,
Muhabbat farz ham qarzdir, qo‘zim, nomusi or etma,

O‘ZGA

Ko‘z ochib ko‘rmadi ko‘z mardumi sandin o‘zga,
Seva olmaydi meningdek sani mandin o‘zga.

Bag‘ri keng, ishqil musaffo guli, bulbullariga
Bormi olamda chaman hech bu chamandin o‘zga!

Bilinur mard kishi mardlik ila bu maydonda,
Saman o‘rnini bosolmaydi samandin o‘zga.

Yuragim torida yo‘q boshqacha kuy, boshqacha soz,
Sen otib poralagan zarbi kamandin o‘zga.

Bari mehrimni olib kimga in’om aylaganing,
Menga ne qoldi xayolingda chamandin o‘zga?

OHISTA-OHISTA

Ko‘ngil mulkiga kirding, dirlrabo, ohista-ohista,
Uning dildori bo‘lding bebahohi ohista-ohista.

Banogoh beijoatz kirdingu hayratda qoldirding
Olib domingga bir ohanrabo ohista-ohista.

Dilim bog‘iga o‘tqazgan bu ezgu dard niholingdin
Vafo undi, vafo undi, vafo, ohista-ohista.

Shirin damlar ato qilding xayolim koinotiga,
O‘zing kel endi jono, marhabo, ohista-ohista.

Ko‘zidin o‘zga aybi bormidir olamda ohuning,
Ko‘zing mardumi-la etgil shifo, ohista-ohista.

IV. Mashg‘ulotni yakunlash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

V. Uyga vazifani e’lon qilish: she’rlarini yod olish va yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlab kelish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.

51 listdan iborat “She’rxonlik” nomli o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!
Bizda maktablar uchun quydagи hujjatlар mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11. O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ochiq dars ishlamalar, taqdimotlar, slaydlar**